

TASVIRIY SAN'ATDA ISHLATILADIGAN BEZAKLARNING RAMZIY BELGILARI

Davronova Nilufar Ma'murjon qizi

Qo'qon davlat pedagogika insituti Milliy hunarmandchilik va amaliy san'at fakulteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası o'qituvchisi

Davronovanilufar@.com, +998911449496

Me'morchilikda va amaliy san'at buyumlariga ko'plab, xilma-xil naqshlar ishlatilganining guvohi bo'lamiz. O'rta Osiyoda islom dini o'rna -tilgunga qadar xona devorlarida lagan, ko'zalarda, ostadon go'r qutilarida, hatto matolarda syujetli tasvirlar ishlangan. Jumladan, Bolaliktepa qasri devorida, Marvdan topilgan V asrga doir sopol ko'zadagi miloddan avvaliga doir mis laganlardagi syujetli tasvirlar fikrimiz isboti bo'la oladi. Mazkur suratlar orasida xalq orasida yoyilgan afsonaviy eposlar- ga bag'ishlanganligiga shubha yo'q albatta.

Ulardagi personajlar syujetli tasvirdagi ma'noni aniqlab turadi. Shuningdek, o'rta asrlardagi amaliy san'at buyumlarida, xona devorlarida, badiiy matolarda daraxtlar, tog echkisi, qo'chqor hamda grifon va parran -dalar, yirtqich hayvonlar surati ishlangan. Bunday tasvirlar ramziy ifodaga ega bo'lgan, albatta. Ular orqali ota-bobola -rimiz o'z orzu – umidlarini izhor qilishgan. Jumladan, kaptar - ayol xudosi (ma'buda) belgisi hisoblangan, keyinchalik xristian dini ramzi va quyoshni ifodalagan. Shuningdek omad ramzini bildirgan.

Qirg'iy — kosmik kuchlarni ifodalagan hamda tamg'alar belgisi sifatida qo'llanilgan.

Burgut — qadimdan quyosh ramzi hisoblangan. Shuningdek kuch va hukmronlik ramzini bildirgan. Umuman tasvirlar olamida qushlar tabiat shakllaridan uzoqlashib, ko'proq ramziy belgilarni ifodalaydi. Ular bilan narigi dunyo tushunchasi belgilangan. Jumladan, kishi o'lgandan so'ng uning ruhi qush bo'lib uchib ketadi, deb tushunilgan.

O'rdak, g'oz, tustovuq, tovus - baxt-omad, go'zallik, olam g'oyalarini, xushxabarlarni yetkazuvchi - darakchi sifatida gavdalanadi. She'riyatda qushlar timsolida ma'joziy, ramziy ma'nolar ifodalangan. Ayrim urug'lar qushlarni o'z totemlari deb bilganlar. Jumladan o'g'uzlar (turkman) ga mansub kayi, bayot, alkireli, karemlı urug'lari uchun — oq lochin, yazir, dyuker, dudurg'a, qanotlilar uchun — burgut, ovshar, karik, bekdili, karkinlar uchun — quyonni ko'tarayotgan burgut, boyondur, bechene, jaguldur, chepnilar uchun — shunqor tasviri totem hisoblangan.

Hayvon - qush (grifon) O'rta Osiyo tasviriy san'atida ikki xil tuzilishda ifodalangan qanotli sher yoki burgut boshli hayvon shaklida. Grifon tabiatdagi ikki xil kuchni, ya'ni ezgulik va yovuzlikni ifoda- lagan. Grifon chorvani qo'riqlab, kishiga xizmat qiladi va uni yovuz kuchlardan asraydi deb tushunilgan.

Ilon boshi tasviri XIX asr na XX asr boshlarida ishlangan choy -jush dastalarida uchraydn Naql qilishlaricha, ilon boshining tasviri idishdagi suyuqlikni har -xil ins-

jinslardan saqlar ekan. Qirg'iz gilam -larida uchraydigan "it izi", "it quyrug'i» nomli naqshlar ularning qadim zamonlarda itga bo'lgan hurmatini ifodalaydi.

O'rta Osiyo devoriy suralarida amaliy san'at buyumlarida daraxt shohchalari naqshi "saodat daraxti" ma'nosini anglatgan. Xalq amaliy - badiiy san'ati me'morchiligida gul xamda o'simliksimon naqsh -lar bilan bir qatorda mevalar ham o'z aksini topgan. Jumladan, I asrga oid bir idishda ayol zulfi va quloklari o'rniga barg va novdalari bilan bir bosh uzum naqshi bo'rtma qilib tushirilgan. Shuningdek, Munchoqtepa makoni xonalaridan birining VI -VII asrlarga oid devorlarida odam boshi bilan bir bosh uzum tasviri ko'zga tashlanadi. Anor esa I -V asr -larga oid ostadon devorlarida, I — III asrlarga oid anor ushlab turgan hosildorlik xudosi Anaxita haykalchasida, o'rta asrlarga oid kulolchilik buyumlarida ifoda etilgan. Xalk uy -joy me'morchiligida ham anorgul, anor naqshi mavjud. Shuni eslatib o'tish kerakki, olma - muhabbat, anor, uzum-ezgulik, to'qchilik, to'kin - sochinlik ramzi hisoblangan.

O'rta Osiyo xalk amaliy san'ati buyumlarida, devoriy naqshlarda doira, girih, uchburchak, romb kabi naqshlar keng qo'llanilgan. Ularning ham ramziy ma'nolari bo'lgan. Jumladan, doira, girih, uchburchak singari shakllar ko'pincha xonadonni, kishini har xil ins-jinslardan asrovchi ramziy belgi vazifasini o'tagan.

To'rt qismga bo'lingan aylana yoki to'g'ri to'rtburchakni Tojikiston -ning Xovaling, Qang'urt tumanlari qishloqlarida gildan yasalgan qutilar- da ko'ramiz. Xuddi shunday naqsh X-XII asr kulolchilik buyumlarida ham mavjud. Mazkur naqshlar dunyoning to'rt qismdan yoki to'rt tomondan tashkil topganligini ifodalagan bo'lsa, ajab emas.

Salib shaklidagi naqsh O'rta Osiyoda juda qadim zamonlardan buyon mavjud. Bunday naqshni xalklar turli davrlarda - tabiatning paydo bo'lishi tushunchasi, quyosh ramzi, o'lish va tirilish ramzi deb bilishgan. Turkman gilamlarining ayrimlarida to'qqizta salib naqshdan romb tuzilishidagi **kompozitsiya** yaratilganining guvozhi bo'ldik. Mazkur naqshni turkmanlar oilani balo-qazolardan saqlovchi tumor, deb tushunishgan.

Romb shaklidagi naqshni O'rta Osiyo tasviriy san'atida ko'p uchratish mumkin. Olimlarning ta'kidlashicha, romb ilk tosh davridan boshlab ayol, ya'ni ona yer belgisi hisoblangan. Ayol-nasl, er esa hosil beradi. Ya'ni hosildorlik ramzini ifodalagan desak, xato bilmagan bo'lamiz.

Qo'chqor shoxiga o'xshash naqsh tog' aholisi amaliy san'at buyumlari- da, devoriy suratlarda ko'p ishlangan. Bunday shakllar qadimiy Panjakent yogoch o'ymakorligi, Varaxsha obidalari hamda tog' me'morchiligidagi ustun ustiga o'rnatilgan boshalar ham qo'chqor shoxiga o'xshab ketadi.

Tog' echkisi azaldan asosan tog'liklar tomonidan e'zozlangan. Ibtidoiy jamoada ovlangan hayvon, shuningdek, tog' echkisi go'shti taom tayyorlash uchun olovxonaga topshirilib, terisi, shoxi ov qatnashchilari orasida taqsimlanar ekan. Demak, yovvoyi, echki shoxi jasur, dovyurak, chaqqon merganga taqdim qilinadigan nishona bo'lgan. Balki Sosoniylar shoxlari bosh kiyimida yovvoyi echki shoxi tasvirlanganligining boisi ham shundadir.

Darvoqe, tog'lardagi uylar xonasining kiraverish peshtoqiga, ustuniga xonadonni balo-qazolardan saqlash maqsadida yovvoyi echki yoki qo'chqor shoxi o'rnatishgan. Binobarin, uylardagi ustun boshasining yovvoyi echki, qo'chqor shoxiga o'xshashligi zamirida qadim zamonlardan saqlanib qolgan ishonch yotadiki, u kishini jasurlikka, mardlikka, pokizalikka da'vat etuvchi ramz sifati -da xalk badiiy bezagida, yog'och o'ymakorligi san'atida o'z ifodasini topgan.

Ustunning ko'zagi (ko'za, qozon, tuvakka o'xshash) qismi xalqimizda hosildorlik, nasllilik ramzini ifodalagan. Darhaqiqat, uning tuzilishi suv, yog saqlaydigan idishni yoki gultuvakni eslatadi. Uning ustidagi "lola madoxil" - chapu rost takrorlanuvchi lolasimon naqshlari esa barglari yonlariga osilib tushgan tuvakdagi gulni eslatadi.

Samarkand, Yuqori Zarafshon so'zanalarida ko'p uchraydigan chorchirok naqshidan qadim zamonlarda muqaddas olovga bo'lgan e'tikodning bezakda saqlanib qolganligini bilib olamiz. Shuningdek, mazkur naqsh orqali xalqimizning yorug'likka, tantanavorlikka bo'lgan intilishlari ifoda -langan.

O'rta Osiyo tasviriy san'atida, amaliy san'at buyumlarida rang qadimdan ishlatilgan. Ranglar ham o'ziga xos ramziy ma'noni bildirgan. Jumladan, ko'k rang moviy osmon ramzi bo'lib, moviy rangdagi gumbazlar osmonga o'xshatilgan. Shu bilan birga ayrim joylarda ko'k rang xonadon -ni yomon ko'zdan asraydigan belgi sifatida ham ishlatilgan. Jumladan, Xivada shu maqsadda imorat darvozasi ustki qismining ikki tomoniga ko'k rangli naqshin sopol idish yoki uning ikkita siniq parchasi suvoqqa yopishtirib qo'yilgan. Qizil rang O'rta Osiyo obidalarini intererini devorida keng qo'llanil -gan. Bunga miloddan avvalgi III—II asrlarga oid Yangi Niso zallari, VI—VIII asrlarga oid Varaxsha obidasining qizil zali dalil bo'ladi. Shuningdek, o'rta asrlarga doir sopol buyumlar zaminida ham qizil rang keng ishlatilgan. Markaziy Osiyo xalqlarida qizil rang g'alaba ramzi hisoblangan.

Oq rang yorug'lik ramzi bo'lgan. Uzoq tog' qishloqlarida yangi uyga ko'chib o'tishdan oldin xonadon ayoli uy ustunlari va shiftiga un sepib chiqqan. Xalqimiz, odatda, kelin - kuyov yo'liga oq matodan poyondoz to'shagan. Ayrim qishloqlarda kelinnikiga kuyov tomondan kelgan quda – andalarga un sepishgan.

Sariq rangni sarik kasalga davo hisoblashgan. Shuning uchun bemor -/ga sarik libos kiydirishgan, xonani "sariq" rangli buyumlar bilan jizhozlashga harakat qilishgan.

Yuqoridagilardan ma'lumki, ota - bobolarimiz xalq me'morchiligi ichki bezagi, amaliy san'at buyumlari, xo'jalik buyumlariga ishlangan rang barang, nafis kompozitsion va ma'no jihatidan bog'langan geometrik va o'simliksimon naqshlardan nafaqat zavq olishgan, balki ular orqali o'z orzu - umidlarini, muhabbatlarini ham namoyish etishgan.

iz ham o'z imkonimiz qadar o'z kulolchilik sohasidagi ijodimizda avvalo albatta an'anaviy yo'sinda va shuningdek o'zimizning noan'anaviy usullarimizda afsonaviy, folklor va hayotiy mavzulardagi tasvir element- larini kulolchilikda qo'llashga harakatlarimiz bor. Bunga misol tariqasi -da "Suv osti malikasi", "Suv osti dunyosi". "Suv osti qo'shig'i". "Sayroqi bulbul".

“Qadrli ohang”. “Tojdor sher” “Hayot qo‘shig‘i”. “Qadrli ohang”, “Anor” kabi mavzulardagi kulolchilikdagi izlanishlarimizni keltiri -shimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davronova, Nilufar. "GUESTS IN ASSEMBLY DRAWING." Open Access Repository 8.12 (2022): 431-433.
2. DAVRONOVA, NILUFAR. "SAN'AT TARIXIGA MUQADDIMA. TASVIRIY SAN'ATNING TUR VA JANRLARI." Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot 2.8 (2023): 53-55.
3. DAVRONOVA, NILUFAR. "QADIMGI YEVROPA ANTIK SANATI." Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya 2.8 (2023): 53-56.
4. Rovshanbekovich, Mamatkulov Rashidbek. "AMIR TIMUR AND THE TIMURID PERIOD LITERARY ENVIRONMENT AND SOME ASPECTS OF THE FINE ARTS ARE IN HISTORICAL SOURCES." E Conference Zone. 2023.
5. Ravshanbekovich, Mamatkulov Rashidbek. "SPATIAL CAPACITY REQUIREMENTS OF THE COMPOSITION." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 816-823.
6. Ravshanbekovich, Mamatkulov Rashidbek. "DIDACTIC PRINCIPLES IN FINE ART TEACHING AND FACTORS OF USING THE SPIRITUAL HERITAGE OF GREAT THINKERS IN FINE ART LESSONS." Open Access Repository 8.11 (2022): 56-60.
7. Ravshanbekovich, Mamatkulov Rashidbek. "IMPORTANCE OF FINE ARTS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.10 (2022): 1008-1013.
8. Ravshanbekovich, Mamatkulov Rashidbek. "Importance and place of Bahodir Jalolov's work in the development of Uzbekistan's majestic color image." Texas Journal of Multidisciplinary Studies 2 (2021): 173-174.
9. Ravshanbekovich, Mamatkulov Rashidbek. "THE IMPORTANCE AND PLACE OF BAHODIR JALOLOV'S WORK IN THE DEVELOPMENT OF MAJOR COLOR PICTURES OF UZBEKISTAN." Archive of Conferences. 2021.
10. Mamatkulov, Rashidbek Ravshanbekovich. "Intuitive Metaphysical Insights In The Works Of The Painter Bakhodir Jalalov." The American Journal of Social Science (2021).